
1) Birinchi sinfni qabul qilib olgan o'qituvchi o'quvchilariga maktabga kelganlaridan boshlab nima uchun maktabga kelishlari, ko'chada kim nima desa ergashib ketishlari yo ketmasliklari, berilgan uy vazifalarini kimga va nima uchun shunday qilishlari kabi savollar berib, bu savollarga o'zlari nuqtayi nazarlaridan javob olib, so'ngra ularga o'qituvchining o'zi nima uchun shunday bo'lishi haqida ma'lumotlar berib bolalarni tarbiyalab kelmoqda. Ushbu vaziyatda o'qituvchi tarbiyaning qaysi tamoyiliga mos ish olib borgan?

A) o'z ustida ishlash

B) o'z-o'zini nazorat qilish

C) o'z-o'zini anglash

D) o'z-o'zini rivojlantirish

2) Birinchi sinfga o'quvchilarni qabul qilgan o'qituvchi o'quv yili boshidan bolalarning ota onalari maktab uchun bergan pullarini qanday sarflash kerakligi haqida tushuncha bera boshladi, bu o'quvchilar to'rtinchi sinfga borganda esa narsalarning qiymati, ularni to'g'ri ishlatish, maktab tomonidan berilgan kitoblar qanchalik asrab avaylashni bilib oldilar. Ushbu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarga qanday tarbiya berdi?

A) aqliy tarbiya

B) iqtisodiy tarbiya

C) axloqiy tarbiya

D) ekologik tarbiya

3) Moslashtiring.

1. Maktab ma'ruzasini ,

2. Hikoya

3. Suhbat

a) savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi bo'lin ta'lim jarayonida ko'p funksiyalar (aqliy fikrlash hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o'quvchida faollikni yuzaga keltiradi. O'qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi

b) o'qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil hodisa va voqelarning yaxlit yoki qismlarga bo'lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo'li bilan ixcham, qisqa va londa izchil bayon qilinishi

c) yirik hajmdagi o'quv materialini og'izaki bayon qilish metodi bo'lib , uning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: qat'iy mantiqiy ketma-ketlik , uzatilayotgan axborotlarning ko'pligi bilimlar bayinining tizimliliigi

A)1-a, 2-b, 3-c

B) 1-b, 2-a, 3-c

C) 1-c, 2-b, 3-a

D) 1-b, 2-c, 3-a

4) Beshinchi sinf o'quvchilarining ko'pchiligi o'quv kurslarida tayyorlanganligi uchun juda yaxshi bilimga ega. Matematika fani o'qituvchisi darsga kirishdan oldin o'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari, talablarini inobatga olgan holda darsga yangi metod, yangicha axborot bilimlarini mustahkamlash uchun qo'shimcha misollar topib darsga tayyorlanadi. Ushbu jarayonda o'qituvchining darsga tayyorgarligining qanday bosqichi namoyon bo'lmoqda?

A) loyihalash

B) tashxis

C) bashoratlash

D) rejalashtirish

5)bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq

bo'lgan barqaror aloqalar

A) Tarbiya jarayoni

B) tarbiya qonunyalari

C) tarbiya tamoyillari

D) ta'lim qonuniyalari

6) Birinchi sinfga o'quvchilarni qabul qilgan o'qituvchi o'quv yili boshidan bolalarning ota onalari maktab uchun bergan pullarini qanday sarflash kerakligi haqida tushuncha bera boshladi, bu o'quvchilar to'rtinchi sinfga borganda esa narsalarning qiymati, ularni to'g'ri ishlatish, maktab tomonidan berilgan kitoblar qanchalik asrab avaylashni bilib oldilar. Ushbu jarayonda o'qituvchi o'quvchilarga qanday tarbiya berdi?

A) aqliy tarbiya

B) iqtisodiy tarbiya

C) axloqiy tarbiya

D) ekologik tarbiya

7) 7-sinf o'quvchilari kimyo fanidan juda yaxshi bilimga ega, Shu sababli o'qituvchi o'quvchilarga dars tuzulishini tarqatma materiallar va yangi qo'shimcha ma'lumotlarni tayyorlashda nihoyatda e'tiborli bo'ladi. Quyida o'qituvchining darsga tayyorgarligining qaysi bosqichi namoyon bo'lmoqda

-
- A) Bashoratlash
 - B) loyihalashtirish
 - C) rejalashtirish
 - D) **tashxis**

8) O'qituvchi yaqinda ochiq dars tashkil qilishi kerak. U o'tadigan ochiq darsi uchun turli xil g'oya va farazlarni o'ylab qo'ydi. Bu darlardan keyingi natijalar haqida ham bosh qotirdi va ular ichidan eng ma'qulini tanlab oldi. Quyida o'qituvchining darsga tayyorgarligining qaysi bosqichi namoyon bo'lmoqda?

- A) rejalashtirish
- B) bashoratlash**
- C) tashxis
- D) loyihalashtirish

9) O'qituvchi suv bug'ga aylanib havoga kotariladi va yana yomg'ir va qor ko'rinishida suvga aylanib yerga tushadi dedi va buni doskada chizib korsatdi bunda o'qituvchi qaysi metoddan foydalandi?

- A) Tasvir
- B) Hikoya

C) Ma'ruza

D) Tushuntirish

10) Maktabda o'quvchilar o'rtasida nizoli vaziyat yuz berdi. O'qituvchi bu jarayonga barham berish uchun har ikki tomonni eshitdi va adolatli xulosa chiqardi. Bunday holat takrorlanmisligi uchun bolalar bilan o'zaro suhbatlar olib bordi. Bunday holatda o'qituvchi nizoni hal qilishning qaysi usulidan foydalandi?

A) Muzokara

B) Arbitraj

C) Mediatsiya

D) Kelishuv

11) "Imperatorlik Rimining asosiy xususiyatlarini sanab o'ting" kabi topshiriq Bloom taksonomiyasining qaysi darajasiga mos keladi. ?

A) bilish

B) qo'llash

C) sintez

D) tushunish

12) "Pifagor teoremasidan foydalanib, to'g'ri burchakli uchburchakning gipotenuzasini hisoblang" kabi topshiriq Bloom taksonomiyasining qaysi darajasiga mos keladi?

A) qo'llash

B) sintez

C) bilish

D) tushunish

13) "Ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligini baholang" kabi topshiriq Bloom taksonomiyasining qaysi darajasiga mos keladi?

A) bilish

B) qo'llash

C) tahlil qilish

D) baholash

14) Turli xil manbalardan olingan ma'lumotlarni birlashtirib, taqdimot tayyorlash Bloom taksonomiyasining qaysi darajasiga tegishli?

A) bilish

B) qo'llash

C) tushunish

D) sintez

15) "Tajriba natijalarini tahlil qilib, olingan ma'lumotlar asosida xulosa chiqaring" kabi topshiriq Bloom taksonomiyasining qaysi darajasiga mos keladi?

A) tushunish

B) qo'llash

C) baholash

D) sintez

16) O'qituvchi darsda o'quvchilarni guruhlarga ajratib raqobatli muhitni tashkil qildi.

Guruhlardan alohida sardorlarni saylab oldi va ular o'rtasida musobaqa o'tkazdi. O'qituvchi ushbu jarayonda ta'lim metodlaridan qaysi birini qo'lladi?

A) Brainstroing

B) Ta'limiy o'yinlar yoki raqobatchilik.

C) Case stady

D) Colliqua

17) Tarix fani o'qituvchisi ma'lum bir muommoni o'quvchilar guruhiga taqdim qildi. Bu muommo yuzasidan o'quvchilarning har bir aytgan fikrlarini tanqidlarsiz, har bir fikrni hurmat qilgan holda

berilgan ijodiy fikrlarni o'qituvchi to'pladi. Muommoga yechim birgalikda izlandi. O'qituvchi ushbu jarayonda ta'lim metodlaridan qaysi birini qo'lladi?

A) Brainstroing

B) Ta'limiy o'yinlar yoki raqobatchilik.

C) Case stady

D) Colliqua

18) Kimyo fani o'qituvchisi o'quvchilar bilan amaliy tashriba o'tkazdi. Tajriba jarayonini yakunlamasdan turib bu vaziyatni o'quvchilarga muhokamaga qo'ydi. Turli savollar orqali vaziyatga yechim izlandi. O'qituvchi ushbu jarayonda ta'lim metodlaridan qaysi birini qo'lladi?

A) Brainstroing

B) Ta'limiy o'yinlar yoki raqobatchilik

C) Case stady

D) qiziqishlar markazi

19) Boshlang'ich sinf o'qituvchisi sinfning burchagida alohida bir muhit yaratish uchun o'quvchilar qiziqishlarini so'radi. O'quvchilar o'zlari tarixiy shaxslar va tarixiy yodgorliklarga

aloqador burchak tashkil qilish uchun harakat qilib jihozlar va rasmlar olib kelishdi. O'qituvchi ushbu jarayonda ta'lim metodlaridan qaysi birini qo'lladi?

A) Brainstroing

B) Case stady.

C) Qiziqishlar markazi

D) Colliqua

20) Maktab kutubxonachisiga maktabda kitobxonlik targ'ibotini kuchaytirish topshirildi. Shunda maktab kutubxonachisi maktabga keksa avlod vakillarini taklif qilidi. Ular o'quvchilarga o'zlari o'qigan badiiy asarlar o'zbek romanchiligining durdonalari, jahon dediktiv namunalari, sarguzasht asarlar mazmunidan qiziqarli hikoyalar aytib berishdi. Natijada o'qituvchi ishi juda namunali bo'ldi. O'qituvchi ushbu jarayonda ta'lim metodlaridan qaysi birini qo'lladi?

A) Brainstroing

B) Debat

C) Qiziqishlar markazi

D) Colliqua

21) Tarix fani o'qituvchisi Yevropa davlatlari haqida mavzularni o'tar ekan u yerning urf odatlari, ta'lim va tarbiyaga e'tibori, yoshlarni tarbiyalashdagi qarashlari diniy tomondan dunyoqarashi haqida suhbat o'tkazib bu vaziyatni o'zbek madaniyati bilan bog'lab tushuntirdi. O'qituvchi ushbu jarayonda ta'lim metodlaridan qaysi birini qo'lladi?

- A) Hamkorlikda o'qitish
- B) Debrifing
- C) Debat

D) Ommaviy madaniyat tazyiqi

22) Ta'lim jarayonida aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradigan ta'lim metodi qaysi?

- A) hikoya
- B) tushubtirish

C) suhbat

D) debat

23) O'qituvchi mavzuni o'tish jarayonida o'quv materialini mazmunini turli dalillar bilan isbotlab, tahlil qilib berdi. Yakunida umumlashtirib,

o'xshash mavzular bilan taqqoslash asosida bayon qildi. O'qituvchi ushbu jarayonda ta'lim metodlaridan qaysi birini qo'lladi?

A)Tushuntirish

B)Seminar

C)Maruza

D)Suhbat

24) O'qituvchi matematika darsida hajm va yuza mavzusini tushuntirib o'tish mobaynida hajmga ega bo'lgan shakllarning qog'ozdan yasalgan ko'rinishlarini namoyish qildi. O'qituvchi ushbu jarayonda ta'lim metodlaridan qaysi birini qo'lladi?

A)Tasvir (Ilyustratsiya)

B)Namoyish(demostratsiya)

C)Amaliy metod

D)Labaratoriya ishi

25) Darsliklar, jadvallar, maketlar, modellar, o'quv-texnik vositalar ta'lim vositalarining qanday turiga kiradi?

A) Material ta'lim vositalari

B) Idial ta'lim vositalari

C) O'rgatish ta'lim vositalari

D) O'rganish ta'lim vositalari

26) Informatika fani o'qituvchisi dars jarayonining qiziqarli va tushunarli bo'lishi uchun kompyuter sistema blokini ochib ishlash jarayonini ko'rsatib berdi. O'qituvchi ushbu jarayonda ta'lim metodlaridan qaysi birini qo'lladi?

A) Tasvir (Ilyustratsiya)

B) Namoyish(demostratsiya)

C) Amaliy metod

D) Labaratoriya ishi

27) Biologiya fani o'qituvchisi gulli o'simliklar mavzusini tushuntirib o'tgach bu mavzuga oid qiziqarli faktlar keltirib o'tdi mavzuni dalillar orqali yoritdi. Yakunida mavzuni mustahkamlash uchun mavzuga oid kinofilmni namoyish qildi. O'qituvchi ushbu jarayonda ta'lim vositalaridan qaysi birini qo'lladi?

A) Ta'limning texnik vositalari

B) Bilimni nazorat qilish vositalari

C) Audiovizual vositalar

D) Texnik qurilmalar

28) Tarix fani o'qituvchisi o'quvchilardan nazorat ishi oldi. Nazorat ishini tekshirib baholab bo'lgach xatolar ustida tahlil o'tkazdi. tahlil jaroyinida faktlar aniq bo'lishi uchun o'quvchilarga tarixiy film namoyish qildi. O'qituvchi ushbu jarayonda ta'lim vositalaridan qaysi birini qo'lladi?

A) Ta'limning texnik vositalari

B) Bilimni nazorat qilish vositalari

C) Audiovizual vositalar

D) Texnik qurilmalar

29) Chizmalar, sxemalar, diagrammalar, tasviriy, san'at, nutq, xat va boshqalar ta'lim vositalarining qaysi turiga kiradi?

A) Material ta'lim vositalari

B) Idial ta'lim vositalari

C) O'rgatish ta'lim vositalari

D) O'rganish ta'lim vositalari

30) O'qituvchi kimyo darsida kimyoviy elementlarga doir nazariy bilimlar berib o'tdi ularni ko'rinishlari bilan tanishtirdi. Elementlardan bir nechtasining ustida kimyoviy laboratoriya

o'tkazib ko'rsatdi. O'qituvchi ushbu jarayonda ta'lim vositalaridan qaysi birini qo'lladi?

A) O'rgatish vositalari

B) O'rganish vositalari

C) Idial ta'lim vositalari

D) Material ta'lim vositalari.